

ERONIY ASOS APELLYATIV ONOMASTIK  
BIRLIKLARI

Axmedova Marhabo, Urganch davlat universiteti Axborot xizmati bo‘limi boshlig‘i, “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, (PhD)

IRANIAN ASYOS APPELLATIVE ONOMATIC  
UNITS IN OGAIY’S WORK “RIYOZU-D-  
DAVLA”

Akhmedova Marhabo, Head of the Information Service Department, Urgench State University, Senior Lecturer, Department of “Uzbek Linguistics”, (PhD)

ИРАНСКИЕ ОСНОВЫ АПЕЛЛЯТИВНЫХ  
ОНОМАТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В  
ПРОИЗВЕДЕНИИ ОГАХИ “РИЁЗУ-Д-ДАВЛА”

Ахмедова Мархабо, заведующая отделом информационной службы Ургенчского государственного университета, старший преподаватель кафедры “Узбекское языкознание”, (PhD)



<https://orcid.org/0000-0002-4791-3427>

e-mail:

marhabo.akhmedova18@gmail.com



**Annotatsiya:** Maqolada Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiyning tarixiy asarlaridan biri bo‘lgan “Riyazu-d-dawla” asarida eroniy appellativlar asosida hosil bo‘lgan onomastik birliklar qiyosiy jihatdan tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** tilshunoslik, Ogahiy, onomastika, toponim, appellativ, eroniy toponimlar, kolorizm.

**Abstract:** The article provides a comparative analysis of onomastic units formed on the basis of Iranian names, which are found in one of the historical works of Muhammad Riza Agehi “Riyazu-d-dawla”.

**Keywords:** linguistics, Agehi, onomastics, toponym, appellative, Iranian toponyms, colorism.

**Аннотация:** В статье проводится сравнительный анализ ономастических единиц, образованных на основе иранизированных наименований, которые встречаются в одном из исторических произведений Мухаммада Риза Огахи “Риязу-д-давла”.

**Ключевые слова:** лингвистика, Огахи, ономастика, топоним, апеллятив, иранские топонимы, колоризм.

**KIRISH.** Onomastika tilshunoslikning alohida tarmog‘i sifatida shakllangandan beri asosiy masalalardan atoqli otlarning yasalish xususiyatlari yoki yasalmasligi masalasi bilan bog‘liq. Tilshunos Z.Do‘simov bu boradagi muhim nazariy qarashlarni ilgari surgan<sup>1</sup>. Shuning uchun ko‘pgina ishlarda

yasama toponimlar deb talqin qilingan holatlarda yasalish joy nomlarining o‘ziga emas, balki nom uchun asos appellativlik xos ekanini e’tiborga olish lozim.

**ADABIYOTLAR VA  
METODOLOGIYA.** Bu mezonnini barcha

<sup>1</sup> Дўсимов З. Топонимлар ясалиши масаласига доир. //Ўзбек тили ва адабиети. – Тошкент, 1980. – № 2.

onomastik birlklarga nisbatan qo'llashimiz mumkin. Masalan, *bo'yrachi* etnonimi asosi *bo'yra+chi* komponentlaridan iborat ekanini hisobga olib, uni sodda yasama etnonim (yoki shu etnonim bog'liq holda yuzaga kelgan *Bo'yrachi* qishlog'ini sodda yasama toponim) deya olmaymiz. Chunki *bo'yrachi* so'z sifatida onomastik birlik bo'lguniga qadar shakllangan va mana shu shakl hamda ma'no uning etnonimga aylanishi uchun asos bo'lgan. Xuddi shuningdek, O'zbekistonning qaysidir hududida yangi qurilgan aholi maskani (ehtimol, davlat tomonidan qurilib, Navro'z bayramida ochilishi rejalashtirilgani uchun) *Navro'zobod* deb nomlansa, uni eroniy qatlampga mansub toponim deb talqin qilish to'g'ri emas. *Navro'zobod* toponimi haqida asos apellyati eroniy so'z(lar) deyishdan ortiq biror nima deyish mushkul. Shuning uchun onomastik birlklarning tarkibiy tahlilida ham, etimologiyasi haqida gapirganda ham apellyati turkiy asosli, apellyati eroniy asosli, apellyati arabiylashtirilgani uchun 7 ta shartni keltiradi. Ulardan biri chet so'z uni qabul qiluvchi til so'z yasash sistemasida aktiv ishtirop etishi lozimligini aytadi<sup>4</sup>. Albatta, o'zbek onomastik fondi uchun asos bo'lgan apellyativlarning katta bir qismi yasalishida fors va arab tillari unsurlari o'zak yoki yasovchi sifatida ishtirop etadi. Ba'zan har ikkala qism tarixan o'zlashma bo'lishiga qaramay o'zbek xalqi ijodi sifatida yuzaga keladi.

Onomalar tabiatidan kelib chiqib, ko'pgina ishlarda, jumladan, toponimlar yasalishi yoki toponimlar etimologiyasi tarzidagi ifodalarni *toponimlar asos apellyativi yasalishi* yoki *toponimlar asos apellyati etimologiyasi* shaklida berish bilan masala mohiyatiga bir qadar yaqinlashadi.

Biz onomastik birlklar tarixiy-etimologik xususiyatlarini asos apellyativlar e'tibori bilan tahlil qilayotganimiz bois bu fikrlarning katta qismi ishimizga aloqador sanaladi. O'zbek tilidagi german tillari o'zlashmalarini tadqiq qilgan O.Jumaniyozov biror til so'zining boshqa til lisoniy qonuniyatlariga moslashishi uchun 7 ta shartni keltiradi. Ulardan biri chet so'z uni qabul qiluvchi til so'z yasash sistemasida aktiv ishtirop etishi lozimligini aytadi<sup>4</sup>. Albatta, o'zbek onomastik fondi uchun asos bo'lgan apellyativlarning katta bir qismi yasalishida fors va arab tillari unsurlari o'zak yoki yasovchi sifatida ishtirop etadi. Ba'zan har ikkala qism tarixan o'zlashma bo'lishiga qaramay o'zbek xalqi ijodi sifatida yuzaga keladi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR.** Asardagi apellyativi eroniy tillarga mansub onomastik birlklarni o'z xususiyatlariga ko'ra dastlab uch guruhga ajratish mumkin bo'лади:

1. Eroniy xalqlar tomonidan eroniy tillarda nomlangan obyektlar.
2. Boshqa xalqlar tomonidan biror obyektni eroniy tillarga mansub apellyativlar asosida nomlash.
3. Biror obyektni har ikkala xalq vakillarining qaysi biri tomonidan nomlanganini aniqlash imkonini bo'lmagan, eroniy tillar yoki turkiy va eroniy tillar materiallari ishtiropi bilan mushtaraklikda yuzaga kelgan nomlar.

Har ikkala xalq qadimdan o'zaro juda mustahkam ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy aloqada yashagani uchun apellyativi eroniy tillarga mansub onomastik birlklarning katta qismi uchinchi guruhga mansub bo'lib chiqadi.

Asarda birinchi guruhga mansub deb topilgan atoqli otlar ichida kichik bir guruhni *obod* komponentli nomlar tashkil qiladi. Masalan, *Abdolobod qal'asi* – ابدال آباد قلعه سی – Razo Xuroson viloyati, Turbati Eron Jom tumani, Bolo-Jom Narobod tumani qishloq okrugiga qarashli qishloq<sup>5</sup>.

<sup>2</sup> Юлдашев Д.Т. Атоқли отларнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Sharq ma'rifati, 2020. – Б.181.

<sup>3</sup> <https://www.etymonline.com/word/oxford>

<sup>4</sup> Жуманиёзов О. Ўзбек тилидаги герман тиллари ўзлашмалари. – Тошкент: Фан, 1987. – Б.19.

<sup>5</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Abdalabad,\\_Razavi\\_Khorasan](https://en.wikipedia.org/wiki/Abdalabad,_Razavi_Khorasan)

Asarda ikki marta tilga olingan: “Lutfalixon hazorakim, *Abdolobod qal’asining hokimi sohib e’timodidur*” (RD, 276<sup>b</sup>). Nomning asosi sanalgan *abdol* so‘zi *abdol* istilohi bilan bog‘liqmi yoki biror shaxs nomiga aloqadormi, aniqlash imkonи bo‘lmadi. Chunki, *abdol* arabchada avliyo(lar)ning tasavvufda valiylikning muayyan bir darajasiga erishgan guruhi. Keng ma’noda avliyolar, shayxlarni ham anglatadi<sup>6</sup>. “Farhangi Dehxudo”da *abdol* rijol ul-g‘aybda avtoddan keyin joylashgan yetti iqlimga rahnamolik qiladigan yetti valiy sifatida talqin qilinadi hamda ularning biri o‘rniga ikkinchisi yetishib chiqib, bu muvozanat doimiy saqlanishi haqida gapiriladi.

*Navro‘zobod qal’asi* نوروزآباد قلعه سى – hozirgi *Navruzobod* – Eronning Razaviy Xuroson viloyatining Chenaron tumaniga qarashli qishloq<sup>7</sup>. Asarda to‘rt marta tilga olingan: “*Navro‘zobod qal’asining havolisin lashkargoh etdilar*” (272<sup>a</sup>).

*Purvarobod qal’asi* پورآباد قلعه سى Bir marta tilga olingan: “*Purvarobod qal’asi* suyining saqqosi” (273<sup>a</sup>).

*Ro‘zobod* – shu hududdagi qishloq: “*Ro‘zobod qal’asi* suyining saqqosi...” (RD, 277<sup>a</sup>). Asarda qo‘llangan eroniylar tillar asosli ayrim antroponimlar eponim sifatida ishlatalgan. Bunga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

*Anishervon* // *No’shiravon* – Xusrav Anushervon. *Anushervon* // *No’shirvon* انوشیروان (501-579) pahlaviycha *nōšag-ruwān* “o‘lmas qalb egasi” ma’nosini anglatadi. Erondagи sosoniy podshoh (531-579-yillarda). Anishervon zamonida Eron gullab-yashnadi. Uning davri Eron tarixiga doir adabiyotlarda “oltin asr” deb tilga olinadi<sup>8</sup>. Uning naqadar odil bo‘lgani ko‘plab ilmiy va badiiy manbalarda tilga olinadi. Jumladan, Alisher Navoiy uning odilligi bois, o‘zi ma’jusiy bo‘lsa ham, do‘zaxga tushmasligi, lekin musulmon bo‘limgani sababli jannatga ham kira olmasligini yozadi:

Anushirvon garchi kofir edi,  
Vale adl zotida zohir edi.  
O‘run garchi kofirg‘a do‘zaxdurur,  
Aning adldin o‘rni barzahdurur.  
Agar kufir rizvon sori qo‘ymadi,

Vale adl niyron sori qo‘ymadi.  
Ul o‘tgandin ar ming yil andozadur,  
Adolatdin ovozasi tozadur<sup>9</sup>.

RDda ham Anushervon aynan adolat timsoli sifatida tilga olinadi.

Adlda, uylaki, *Anishervon*, Mamlakat ahlini qilib xandon (RD, 288<sup>b</sup>).

Agar adlini ko‘rsa *No ‘shiravon*, O‘z adlini zulm qilg‘ay gumon (RD, 250<sup>b</sup>).

*Afrosiyob* – “Shohnoma”da shu nom bilan tilga olingan turkiy xalqlar qahramoni Alp Er To‘nga.

Kim *Afrosiyob-u* kim Isfandiyor,  
Na ish qildilar dahr aro ixtiyor (RD, 249<sup>a</sup>).

*Bahrom* – Mirrix (Mars) sayyorasining nomi. Jang timsoli. Quyida keltiriladagan “Yetursa qo‘lin qahr samsomig‘a, Tushar vahmi jon charx *Bahromig‘a*” (RD, 250<sup>b</sup>) baytida *Bahrom* kosmonim sifatida tilga olingani ayon. Bayt mazmuni “Qo‘lini qahr shamshiriga yetkazgan paytda falakdagи Bahrom (Mirrix)ning joniga vahima tushadi”. “Dilovarliqda qul ollida Rustam, Bahodirliqdadur *Bahrom* chokar” (RD, 264<sup>a</sup>) baytida esa uni antroponim sifatida ko‘ramiz. Ogahiyning asar nihoyasidagi saj’ va tajnis orqali ifodalangan xulosaları ildizini, bizningcha, Alisher Navoiy “Tarixi muluki Ajam” asarining Bahrom ibn Yazdijurd (ya’ni “Haft paykar” qahramoni Bahrom) qissasi xulosasida bergen.

Chu shoh o‘ldi olamg‘a Bahrom Go‘r,  
Jahonda may-u ayshdin soldi sho‘r.

Ajal sharbati ayshini sho‘r etib,  
Chiqordi jahondin yerin go‘r etib<sup>10</sup> – baytlaridan izlash kerak.

Umuman, fors adabiyotida Bahrom va uning Go‘r laqabi orqali tajnis hosil qilingan misralar ko‘plab uchraydi. Jumladan, Umar Xayyomga nisbat berilgan ruboiylaridan biri:

On qasrki, Jamshid dar u jom girift,  
Ohu bacha kardu rubah orom girift.

*Bahromki*, Go‘r megiriftiy hama umr,  
Diydiki, chiguna go‘r Bahrom girift<sup>11</sup>.

<sup>6</sup> <https://hadis.uz/terms?query/абдол>

<sup>7</sup> <https://fa.wikipedia.org/wiki/نوروزآباد>

<sup>8</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%90%D1%83%D1%88%D0%B8%D1%80%D0%BE%D0%BD%D0%BA%D0%BE%D0%BC> Ануширван

<sup>9</sup> Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. – Тошкент: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. – Б.221.

<sup>10</sup> Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш томлик. Ўн тўртинчи том. – Тошкент: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. – Б.221.

<sup>11</sup> Ал-рамс. // www.Mehrarkam.com

*Isfandiyor* “Avesto”da *Spandudota*, pahlaviyda *Spandiyod* yoki *Spandiyot*, arab manbalarida *Spandarmoz* shaklida uchraydi va “pok aql, idrok yaratuvchisi yoki spanta (ezgullik) baxsh qiluvchi” degan ma’noni anglatadi. “Avesto”da *Spandudota* nomli tog’ ham tilga olinadi. Xurosondagi bu tog’ nomi “Shohnoma”da *Spand* tarzida tilga olinadi. Isfandiyor – qadimiy eron rivoyatlarida mashhur pahlavon, Gushtasping o‘g‘li nomi. U haqda “Avesto”da qisman, “Shohnoma”da esa mufassal hikoya qilinadi<sup>12</sup>. RD ham Isfandiyorning eponim sifatidagi ma’nosini “Avesto” va “Shohnoma”da bayon qilingan voqealar mazmuni bilan bog‘liqidir: “Emas qizsa hangomayi korzor, Birining harifi yuz *Isfandiyor*” (RD, 257<sup>a</sup>).

*Narimon* tarkibidagi -mon komponenti ajralmas holatga kelib qolgan nomlardan biridir. *Narimon* nomi “Avesto”da *Nair manavi* shaklida berilgan bo‘lib, bu tarkib “mardona o‘yli, mardona fikrllovchi”, boshqacha aytganda, “jasur, pahlavon” degan ma’noni beradi. “Avesto”da bu nom alohida antroponim emas, balki Gershaspning sifatlaridan bire bo‘lib kelgan. Keyinchalik esa *Narimon* yoki *Niram* shaklini olgan<sup>13</sup>. “Shohnoma”da esa *Narimon* Gershaspning otasi bo‘lib, alohida antroponim sifatida zikr etilgan.

“Riyoz ud-davla”da *Narimon* nomi uch o‘rinda uchraydi. Har uchala o‘rinda ham *Som* nomi bilan birga zikr etilgan. *Som* “Shohnoma”da Narimonning farzandi sifatida talqin qilingan. “Avesto”da esa *Som Sâma* shaklida bo‘lib, shaxs emas, balki urug‘-xonardon nomidir<sup>14</sup>. “Somi *Narimondin* akmal sanab, ...” (RL, 291<sup>a</sup>)

*Rustam* – pahlaviyda *Rodastahm*, *Rostahm*, forsida رستم. Qadimgi forsidiyagi *Raudastaxma* – kuchli, buquvvat so‘zidan<sup>15</sup>. Tadqiqotlarda Rustam va Suhrob haqidagi rivoyatning osetin (nart), german va kelt qahramonlik afsona va rivoyatlari bilan umumiy jihatlari borligi qayd etiladi. Shuningdek, rus folklor qahramoni Eruslan Lazarevichning nomi va ba’zi hikoyalari Zolizarning o‘g‘li Rustamga

<sup>12</sup> Тиллаева М. Хоразм ономастикаси тизимининг тарихий-лисисиий тадқиқи (“Авесто” ономастикасига қиёслаш асосида): Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2006. – Б.55.

<sup>13</sup> مازندرانی حسین شوید فرنگ شاهنامه (نام کسان و جاها) بلخ بنیاد نشآپور ۷۱۹. ۱۳۸۸ ص.

<sup>14</sup> مازندرانی حسین شوید فرنگ شاهنامه (نام کسان و جاها) بلخ بنیاد نشآپور ۳۸۶. ۱۳۸۸ ص.

<sup>15</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/Рустам>

borib taqaladi<sup>16</sup>. Bu haqda O.G‘afurov ishlarida ham qayd etiladi<sup>17</sup>.

Rustamning mashhur laqabi *Tahamtandir*. Bu so‘z “qahramon” ma’nosini beradi: Asardagi “*Tahamtan* razm vaqtı *Rustamdek*, ...” (RD, 288<sup>b</sup>) deyilganda *tahamtan* ham lug‘aviy birlik, ham onomastik birlik sifatida iyhom hosil qilgan.

*Faridun* – *Traetaona* (“Avesto”da *Eraētaona*, pahlaviyda *Frēdōn*, fors tilida فریدون, tojikcha *Faridun* // *Faredun*)<sup>18</sup> – Eron mifologiyasi qahramoni, Peshdodiylar sulolasidan bo‘lgan podshoh, dunyoni uch o‘g‘li o‘rtasida taqsimlagan. U arablarni Erondan quvib chiqarish bilan mashhur bo‘ldi. Bu mifonimning apellyativ asosi “Shohnoma”da “ajdaho qotili” ma’nosini ifodalaydi. “Veda”larda u Vritra ajdahosining zabit etuvchisi Trita obraziga yaqin<sup>19</sup>. “Bari muknat ichra *Faridun* kebi” (RD, 265<sup>b</sup>).

*Daragiz qo‘rg‘oni* – chegarada joylashgan hududlardan biri: “*Daragiz* xarobasining kunjida muxtafiy erdi...” (277<sup>b</sup>)

*Darozob* nomi ikki mustaqil so‘zdan tashkil topgan bo‘lib, aynan “uzun suv (havzası)” degan ma’noni anglatadi: “Ro‘zobod qal’asi suyining saqqosig‘akim, *Darozobg‘a* mashhurdur” (RD, 277<sup>a</sup>).

“*Dastgird* – Markaziy Erondagi shahar Ishafon bo‘stoniga qaraydi. Burxori Meyme shahristoniga tobe”<sup>20</sup>. Hozirda aholisi 20000 ga yaqinlashib qolgan bu shahar o‘sha paytda qal’a bo‘lgan. Asarda uch marta tilga olinadi: “Jilagon darbandidinkim, *Dastgird* qal’asining sharqiy jonibida voqe’dur” (RD, 297<sup>a</sup>).

**XULOSA.** Asarda apellyativi eroniyl tillarga mansub birlklarni uch guruhga ajratib tahlilga tortdir. Ayrim onomastik birlklar tarkibi arabcha va forsiy; forsiy va forsiy; turkiy va forsiy asoslar tashkil topishi ham ko‘p kuzatiladi. Asardagi apellyativi eroniyl tillarga oid onomastik birlklar tahlili ham turkiy va eroniyl tillarining bir-birlariga

<sup>16</sup> Ерұслан Лазаревич. [Мифологический словарь](#) / Гл. ред. Е. М. Мелетинский. – М.: [Советская энциклопедия](#), 1990. – С.287.

<sup>17</sup> Гафуров А. Имя и история: об именах арабов, персов, таджиков и тюрков. Словарь. – М.: Наука, 1987.

<sup>18</sup> [Хидр](#) // [Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона](#): в 86 т. – СПб., 1890–1907.

<sup>19</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/> Траэтаона

<sup>20</sup> <https://www.google.com/search/> دستگرد

samarali ta'sirini ko'rsatuvchi muhim faktlar taqdim etadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Том I. – СПб. 1960.
2. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. Том I. – СПб. 1893.
3. Vamberi. “O’ba” va “qal’a” so‘zlari haqinda (aynan) // Sho‘ro, 1911 №3.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000.
5. Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства// Советская тюркология. – 1989. – №1.
6. Bulatov S.S. Ranshunoslik.– Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti, 2009.
7. Юлдашев Д. Атоқли отларнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: 2021.

